

## FARG'ONA VODIYSIDA ETNONIMLARNING HUDUDIY TARQALISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Mamatisakov Jahongirmirzo**

*Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** *Etnotoponimlarning vujudga kelishida aholining etnik tarkibi–ma'lum hududda istiqomat qilgan turli xalq, qabila, urug', qavmlar muhim rol o'ynagan. Aholi maskanlarining ko'pchiligi kishilarning ijtimoiy guruhiga – qaysi qabila va urug', qavmga mansubligiga nisbatan nom ola boshlagan. Etnonimdan yasalgan oykonimlar–etnooykonimlar, odatda, turli qabila, urug'vakillari qo'shni, aralash yashagan hududlarda, etnonimlar farq etuvchi belgi vazifasini bajaradigan joylarda yuzaga kelgan. Bunday nomlar o'sha qabila, urug'vakillarining o'zlari tomonidan berilmagan, balki qo'shni, ikkinchi qabila kishilari tomonidan qo'yilgan. Etnooykonimlarni o'rganish orqali ayrim etnoslarning o'tmishda yashagan joylarini aniqlash mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *etnonim, etnooykonim, qo'ng'iroq, mang'it, kenagas, jaloyir qurama, saroy, nayman.*

### KIRISH

Farg'ona vodiysidagi aholi maskanlarining salmoqli qismi o'tmishdagi urug', qabila, qavm nomlari–etnonimlar bilan atalgan. Bu bejiz emas, albatta. Chunki boshqa turkiy xalqlar kabi o'zbek xalqi ham tarixan bir qancha urug'-qabilalardan tarkib topgan. Odatda, 92 o'zbek urug'i bo'lgan, deb hisoblaydilar. Qipchoqlar, qo'ng'iroqlar, mang'itlar, kenagaslar, jaloyirlar, quramalar, saroylar, naymanlar, do'rmonlar, qang'lilar, minglar, yuzlar, qotag'onlar, barloslar, qovchinlar eng yirik qabilalardan sanalganlar. Bu urug', qabilalarning har biri bir necha mayda uzvlar, bo'laklar, to'plarga bo'linganlar. Davrlar o'tishi bilan ularning bir qismi unutilib ketgan. Ammo urug'nomlarining aksariyati joy nomlari sifatida saqlanib qolgan. Tadqiqotlarimiz davomida Farg'ona vodiysida jami 96 ga yaqin etnonimlarning 150 ga yaqin xududda tarqalganini ko'rish mumkin. Ushbu etnonimlarni viloyatlar kesimida taxlil qilganda Andijon viloyatiga 45 ta nom (yoki jami ulushning 31.6%i), Farg'ona viloyatiga 56 ta (yoki jami ulushning 39.4%i), Namangan viloyatiga 41 ta (yoki jami ulushning 28.9%i) to'g'ri keldi.

Bundan tashqari Andijon viloyatida eng ko'p etnonimlar Asaka tumanida (12 ta joy nomi) va marhamat tumanida (7 ta joy nomi), Farg'ona viloyati Dang'ara tumanida (9 ta joy nomi), Beshariq tumanida (6 ta joy nomi), Uchko'prik tumanida (5 ta joy nomi), Namangan viloyatida Norin tumanida (6 ta joy nomi), To'raqo'rg'on tumanida (5 ta joy nomi) kabi xududlarda tarqalgan. Vodiy toponimiyasida eng ko'p uchraydigan joy nomlariga Jaloyir, Nayman, Kenagas kabi nomlar 10 dan ortiq qishloq va mahalla nomlarida aks etgan, Qipchoq 8 marta, Baxrin, Do'rmon, Uyg'ur, Urganji kabi nomlar 5 martadan, to'da, saroy, Cho'mbag'ish kabi nomlar 4 martadan, Qo'ng'iroq nomi 3 martadan takrorlangan. (Ilovaga

qarang). Quyida shunday etnooykonimlarining tarqalish xududlari va lug'aviy ma'nolariga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

Jaloyir – o'zbek, qozoq, qirg'iz va qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan turk-mo'g'ul qabilasi. O'zbeklar tarkibiga kirgan jaloyirlar Farg'ona, Toshkent, Buxoro vohalarida yashagan. Jaloyirlar ikkita yirik Qaychili va bolg'ali urug'lariga hamda mayda urug'larga (Qarg'ali, boshqird, Qoraabdal, Qorako'l, qorachopon, chuvuldoq, jastaban) bo'lingan. (Do'simov,1977; Qoraev, 1978).

Nayman – Farg'ona vodiysida 10 dan ortiq qishloq va mahalla nomlarida aks etgan. Nayman – o'zbek urug'laridan biri, uning bir qancha tarmoqlari bor. Nayman so'zi mo'g'ulcha bo'lib, nayma – "sakkiz" degan ma'noni anglatadi.

Naymanbo'ston – Farg'ona vil. Toshloq t., qishloq nomi. Yuqorida aytilgan Farg'ona – Yozyovon – Quva oralig'ida qirg'izlarning bo'sto'n (bo'z to'nli) urug'i vakillari keng tarqalganligi haqidagi fikrga e'tibor berilsa, bu nomni Nayman va Buston qabilalari nomlaridan olinganligini ta'kidlash lozim.

Bahrin – Farg'ona vil. Marg'ilon sh., Uchko'prik t., Andijon vil. Asaka t., Namangan vil. Xo'jaobod t., mahalla nomi. S.Gubaeva (1983) dala tadqiqotlari va "Boburnoma"ga asoslanib bu nomni Farg'ona vodiysida keng tarqalgan urug'nomidan olinganligini yozadi.

Bahriobod – Namangan vil. Mingbuloq t., Uchqo'rg'on t., mahalla nomi. Bahri (ar.) – dinning nuri, yog'dusi; dinning viqori, shukuhi yoki dinning nurli, saodatmand kishisini bildiradi. Biroq, bu nom Baxrin urug'i nomi bilan bog'liq ekanligi haqiqatga yaqindir

Kenagas – O'zbekistonning ko'p joylarida uchraydigan qishloq va mahalla nomlari. Bu xil nomlar kenagas etnonimi asosida yasalgan. Kenagas – yirik o'zbek urug'laridan biri. Kenagaslarning Qo'qon shahri atrofida ko'proq to'planganligini kuzatish mumkin (Gubaeva, 1983).

Do'rmon – Farg'ona vil. Qo'shtepa t., Andijon vil. Shahrixon, Asaka t., mahalla nomlari. Do'rmon XVI-XVII asrlarda dashtidan kelgan o'zbek qabilalaridan biri. Bu qishloqlar Do'rmon va Do'rmoncha shakllarda talaffuz qilinadi. Mo'g'ulcha do'rbun (do'rba)– "to'rt" degan ma'noni bildiradi. (Qoraev. 1978., Oxunov., 1989).

Do'rmoncha – Farg'ona vil. Bag'dod t., qishloq nomi. Do'rmon qishlog'idan ajralib chiqqan, yangi tashkil etilgan aholi maskaniga kichik Do'rmon yoki Do'rmoncha nomi berilgan.

Saroy – Namangan vil. Chortoq, To'raqo'rg'on t., Andijon vil. Oltinko'l, Shahrixon t., qishloq va mahalla nomi. Saroy (f-t.) – manumental bino, davlat boshliqlarining istiqomatgohi va qarorgohi, shu bilan birga saroy deganda umum tomonidan foydalaniladigan binolar, masalan, mehmonxona ("karvonsaroy") va boshqalar tushunilgan. Shuningdek, saroy degan qabila bo'lgan.

To'da – Namangan vil. Norin t., Andijon vil. Baliqchi t., Farg'ona vil. Rishton t., shaharcha, qishloq va mahalla nomi. To'da – o'zbek urug'laridan birining nomi. Aholi maskani shu urug'nomi asosida vujudga kelgan.

Uyg'ur, Uyg'urobod – Andijon vil. Andijon sh., Oltinko'l, Paxtaobod t., Namangan vil. Pop t., qishloq va mahalla nomi. Uyg'ur millatining nomidan olingan joy nomi. Etnooykonim. S.Qoraev (1978)ning yozishicha, 92 bovli o'zbek qavmlari orasida uyg'ur qabilasi tilga olingan.

Urganji, Urganjibog' – Andijon vil. Izbosgan t., Namangan vil. Namangan t., Farg'ona vil. Qo'qon sh., Buvayda, Dang'ara t., qishloq va mahalla nomi. Urganji so'zi etnonim bo'lib, bu guruh vakillari XVIII asr oxirida Urganch shahridan chiqib O'zbekistonning turli hududlariga tarqalgan. Urganji so'zi hozirgi tilda urganchliklar degan ma'noni anglatadi.

Cho'mbag'ish – Andijon vil. Andijon t., Namangan vil. Kosonsoy, Yangiqo'rg'on t., Farg'ona vil. Buvayda t., mahalla nomlari. Aslida cho'ngbag'ish bo'lishi mumkin. Qirg'iz urug'lari orasida Boybag'ish, Qorabag'ish, Saribag'ish kabi nomlar uchraydi.

Qipchoq qabilasi o'zbek xalqining eng katta va nufuzli qabilalaridan biridir. Respublikamiz hududida qipchoqlar Farg'ona vodiysida, Zarafshon vohasida, Xorazmda yashaganlar. Buxoro, Qashqadaryo, Toshkent tomonlarda ham ularning ayrim guruhlarini o'troqlashib qolganlar. Farg'ona viloyatining Beshariq, Toshloq, Rishton, Namangan viloyatining Namangan, Pop, To'raqo'rg'on, Chortoq, Uychi, Andijon viloyatining Izboskan, Asaka tumanlarida Qipchoq deb ataluvchi qishloqlar, Qo'qon shahri va Toshloq tumanidagi Qipchoqariq gidrooykonimlarining nomi shu etnik birlik nomidan olingan. Dang'ara tumanidagi yashiq, to'rayg'ir, Qizilmush, Beshariq tumanidagi Qorabo'yin, Tovul, Uchko'prik tumanidagi Puchug'oy, Buvayda tumanidagi Bachqir, Oltiariq tumanidagi Oqbo'yra qishloqlarining nomlari qipchoq urug'larining nomi bilan atalgan.

O'zbekistonda tarqalgan etnooykonimlar orasida boshqa millat, xalq vakillari tarqalganligini, yashaganligini bildiruvchi joy nomlari ham mavjud. Uchko'prik, Quva, Dang'ara tumanlaridagi qirg'izqishloq, Buvayda tumanidagi Qirg'izqo'rg'oncha, Qo'shtepa tumanidagi qirg'izlar, Qirg'izobod, Farg'ona tumanidagi Qirg'izsho'ra, Quva, Uchko'prik tumanlaridagi Qirg'izmahalla oykonimlari shu hududlarda yashagan qirg'iz xalqi nomi bilan atalgan.

O'zbeklar bilan tojiklar qadim zamonlardan beri yonma-yon yashab, o'zaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo'lib kelganlar. Bunday munosabatlar ikki xalq tarqalgan hududning jug'rofiy nomlari tizimida ham o'z aksini topgan. Tojiklar bilan o'zbeklar aralash yashagan joylarning ko'pchilik qismida tojik etnonimi joy nomi shaklida uchraydi. Bunday oykonimlar jumlasiga Asaka, marhamat, Shahrixon, Quva, Toshloq, Uchko'prik, Qo'shtepa tumanlaridagi Tojikqishloqlarni hamda bir necha aholi maskanlari tarkibida uchrovchi Tojik mahallalarni misol qilib keltirish mumkin.

Farg'onada vodiysida bir qator aholi maskanlari Arabqishloq (Buvayda tumani), Arabqo'rg'oncha (Uchko'prik tumani), Arabmazor (Toshloq tumani), yangi Arab, eski Arab (Oltiariq tumani), Aravon (Dang'ara tumani) nomlari bilan yuritiladi. Bu oykonimlar xalq nomi–Arab etnonimi asosida vujudga kelgandir.

O'zbekistonda Qozoqovul, Qozoqqo'rg'on, Avg'onqishloq, O'rtaavg'on, Avg'onbog', Qoraqalpoq, Qoraqalpoqqo'rg'oncha Mazanglik kabi qishloq va mahalla, ko'chalarining nomlanishi qozoq, afg'on, qoraqalpoq, mazang etnonimlari bilan aloqadordir.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, aholining etnik tarkibi, ularning qaysi urug', qabila, millat, xalqqa mansubligini ifodalovchi turar joy nomlari—etnooykonimlar O'zbekiston joy nomlari tizimida alohida guruhni tashkil etadi. Bu xil oykonimlar mamlakatimiz hududida qadim zamonlardan boshlab hayot kechirgan turli qabilalar, qavmlar, xalqlarga oid yangi ma'lumotlar beradi. Etnooykonimlarni o'rganish va tahlil etish tilshunoslik, tarix, etnologiya fanlari uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ismoilovich, A. Y., & Erkinovich, M. A. (2022). THE USE OF HYDRONICS IN THE STUDY OF CHANGES OCCURRING IN THE PROCESS OF WATER USE. PEDAGOGS jurnali, 10(1), 148-154.
2. Аҳмадалиев, Ю. И. (2014). Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси. Т: Fan va texnologiya, 340.
3. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Changes in the Natural Composition of the Land Fund and Its Protection (on the Example of Khojaabad District). Academia Globe: Inderscience Research, 2(04), 165-168.
4. Ismoilovich, A. Y., & Abdulkakim o'g, F. N. M. (2022). ATMOSFERA XAVOSINI IFLOSLANISHINI OLDINI OLISHDA TARIXIY VA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(10), 167-179.
5. Ismoilovich, A. Y. (2022). АНКЛАВХУДУДЛАРДА ЕРРЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(10), 180-186.
6. Аҳмадалиев, Ю. И., & Комилова, Н. Ў. (2020). Этноэкологик маданиятнинг ҳудудий жиҳатлари.
7. Аҳмадалиев, Ю. И., & Абдуғаниев, О. И. (2019). The value of geoeological principles in the system of protected natural territories. In Узбекистон ва Россияда география фани: умумий муаммолар, ҳамкорлик салоҳияти ва истиқболи (pp. 48-50).
8. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Geoeological and Farm Stress Level (on the Example of Khojaabad District). Academia Globe: Inderscience Research, 2(04), 169-174.
9. Аҳмадалиев, Ю. И. (2018). Топонимика ва географик терминшунослик. Ўқув қўлланма.—Фарғона, “PoligrafServis”, 44.

10. Ахмадалиев, Ю. И. (2015). НЕОБХОДИМОСТЬ ПРОБЛЕМНОГО ПОДХОДА К ИССЛЕДОВАНИЮ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ РЕГИОНА. Актуальные вопросы современной науки, 3, 24-28.
11. Ахмадалиев, Ю. И. (2022). Муроджон Насириллохон ўгли Мусаев. Андижон вилоятида туризмни ривожлантиришда Хонобод туристик рекреацион зонасининг ўрни. *AcademicResearchinEducationalSciences*, 3(10).
12. Ахмадалиев, Ю. И. (2009). Фарғона вилояти топонимлари. Фарғона:—Фарғона|| нашриёти, 108-109.
13. Ахмадалиев, Ю. И., & Алимджанов, Н. Н. (2020). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ТРАДИЦИОННОГО ВОДОПОЛЬЗОВАНИЯ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ. In *География: развитие науки и образования* (pp. 375-380).
14. Ахмадалиев, Ю. И. (2015). Этноэкологическая культура населения Ферганской долины в конце XIX и начале XX века. *Социально-экономическая география. Вестник Ассоциации российских географов-обществоведов*, (4), 181-187.
15. Охунов, Н. А. Ю., & Ахмадалиев, Ю. (2010). Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари.
16. Ахмадалиев, Ю. И., Абдувалиев, Ҳ. А., & Алимджанов, Н. Н. (2019). ABOUT THE ETHGEOGRAPHIC ROOTS OF PROBLEMS OF THE CONSUMING WATER AND GROUND RESOURCE. In *Геоэкологические проблемы бассейна Аральского моря: научные идеи, исследования, инновации. Сборник материалов Международной научно-практической конференции* (pp. 107-111).
17. Ахмадалиев, Ю. И. (2015). ЭТНОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ. *Известия Географического общества Узбекистана*, 45, 180-183.
18. Ахмадалиев, Ю. (1997). Анди-тутинган демак. *Фан ва турмуш*, (1).
19. Ахмадалиев, Ю. И. АНДИЖОН ВА МАРҲАМАТ ТОПОНИМЛАРИ ҲАҚИДА. ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР НОМИДАГИ АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 81.
20. JahongirmirzoJamoliddinO'G'LiMamatisakov, NurinisoValijonQiziAlijonova, &SarvinozZokirjonQiziRahmatullayeva (2022). QUVASOYHUDUDIDAGITOPONIMLARNINGSTRATIGRAFIKTAHLILI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (10), 49-55.
21. Gayratovich, M. E., Jahongir, M., & Abdugaffarovna, U. G. (2022). MAIN ECOTOURS IN FERGANA REGION. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(13), 136-140.
22. Mamatisakov, J., Abduqaxxorov, L., & Shaydiyev, H. (2022). HISTORICAL DEVELOPMENT OF TOURISM AND GEOGRAPHICAL ASPECTS OF ITS RESEARCH. *Scientific Impulse*, 1(4), 379-385.
23. Mamatisakov, J. J., Qahhorova, M. M., & Mo'Minova, S. I. (2022). МАКТАВ ГЕОГРАФИЯ ТА'ЛИМИДА FOYDALANILADIGAN МАТЕМАТИК FORMULALAR TAVSIFI. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 153-161.

24. Muhitdinov, I. I. O. G. L. (2021). SO 'X DARYOSI OQIMINING SHAKLLANISHIDA GIDROMETEOROLOGIK OMILLARNING ROLI. Academic research in educational sciences, 2(7), 286-290.
25. Ахмадалиев, Ю. И., Маматисаков, Ж., & Мухитдинов, И. (2022). НЕОБХОДИМОСТЬ СОВМЕСТНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И ОХРАНА ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ ПРИГРАНИЧНЫХ ТЕРРИТОРИЙ. ScientificImpulse, 1(3), 732-738.
26. Mamatisakov, J. J. O. G. L., Abduqaxxorov, L. S. O. G. L., Rahmatjonov, A. A. O. G. L., & Vahobjonov, A. A. O. G. L. (2021). Regional Aspects Of Development Of Tourist Routes. Scientific progress, 2(8), 57-60.
27. Gayratovich, M. E., Jahongir, M., & Musajonovna, A. F. (2022). SPELEOTOURISTIC POSSIBILITIES OF FERGANA VALLEY. Scientific Impulse, 1(4), 66-70.
28. Mamatisakov, J. (2022). 1 Òzbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) 2 Ziyoz (sayti). Scientific Impulse, 1(2), 587-590.
29. Махкамов, Э. Г., & Маматисаков, Ж. (2021). РЕКРЕАЦИЯ ВА ТУРИЗМ ОБЪЕКТЛАРИНИ ХУДУДИЙ ЖОЙЛАШТИРИШНИНГ ГЕОГРАФИК ЖИХАТЛАРИ. ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО, 2(1).
30. Mamatisakov, J. (2022). IMPROVING STUDENTS' GEOLOGICAL KNOWLEDGE BY SCHOOL GEOGRAPHY EDUCATION. Academic research in educational sciences, 3(10), 88-94.
31. Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, & Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov (2021). FARG'ONA VODIYSINING JANUBIY QISMI GIDROGRAFIYASI. Scientific progress, 2 (3), 975-980.
32. Mamatisakov, J., Egamberdi, B., & Dostonbek, M. (2022). TERRITORIAL ASPECTS OF THE DISTRIBUTION OF ETHNOONYMS OF FERGANA REGION. Scientific Impulse, 1(2), 591-595.
33. Ismoilovich, A. Y., & Erkinovich, M. A. (2022). THE USE OF HYDRONICS IN THE STUDY OF CHANGES OCCURRING IN THE PROCESS OF WATER USE. PEDAGOGS jurnali, 10(1), 148-154.
34. О. И. Абдуганиев, & А. Мадрахимов (2022). МУХОФАЗАЭТИЛАДИГАНТАБИЙ ХУДУДЛАРИНИНГ АСОСИЙ ТОИФАЛАРИ ВА ТАСНИФЛАР И. Academic research in educational sciences, 3 (10), 136-143.
35. Gayratovich, M. E., Ablazbek, M., & Nematulloh, F. (2022). ISSUES OF TOURISM DEVELOPMENT IN MOUNTAIN REGION. Scientific Impulse, 1(4), 71-75.
36. Normatova, S. A., Botirov, M. T., Ruzmatova, K. K., & ugli Mamarasulov, J. O. Hygienic Basis for Contamination of Food Products and Production of Dairy Products Until 2030. International Journal of Health and Medical Sciences, 4(1), 123-128.
37. Botirov, M. T., Normatova, S. A., NIZAMETDINOVA, M., SHODMONOV, U., & MAMARASULOV, J. (2021). INFLUENCE OF OIL AND OIL PRODUCTS ON LIVING ORGANISMS AND METHODS OF SOIL PURIFICATION FROM OIL PRODUCTS. Asian Journal of Advances in Research, 28-32.

38. Mamarasulov, J. (2022). FABACEAE FAMILY IN FLORA IN THE FERGANA VALLEY, RARE SPECIES OF ASTRAGALUS. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(11), 117-119.

39. Alimov, S. S., & Yusupova, O. M. (2022). LINGUOCULTURAL FEATURES OF BORROWINGS FROM ENGLISH TO UZBEK LANGUAGE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 1-4.

40. Mamadjanova, M. U. (2022). O ‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG ‘ISHTIRMA TADQIQI. ANTONAMAZIYA EPITETLAR. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(5), 110-115.